



Zumradxon SODIQOVA,
510-DMTT rahbar o'rinbosari
E-mail: zumradxon.nigmatova@mail.ru

NamDU dotsenti D.Sarimsakova taqrizi asosida

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINI AMALIY METODLAR ORQALI TANQIDIY FIKRLASH SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi, bu jarayonda amaliy metodlarning o'rni va samaradorligi yoritilgan. Tanqidiy fikrlash bolalarda mustaqil qaror qabul qilish, tahlil qilish, muqobil yechimlarni topish, savol berish va xulosalash kabi kognitiv faoliyatlarni rivojlantiradi. Maqolada tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o'yin texnologiyalari, muammo asosida o'qitish, kashfiyotli o'rganish kabi amaliy yondashuvlarning samarasi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, tanqidiy fikrlash, amaliy metodlar, o'yin texnologiyasi, muammo asosida o'qitish, bolalar fikrlashi, kognitiv rivojlanish.

FORMATION OF CRITICAL THINKING SKILLS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS STUDENTS THROUGH PRACTICAL METHODS

Annotation

This article highlights the relevance of developing critical thinking skills in preschoolers, the role and effectiveness of practical methods in this process. Critical thinking develops cognitive activities in children such as independent decision-making, analysis, finding alternative solutions, asking questions and drawing conclusions. The article scientifically and theoretically highlights the effectiveness of practical approaches such as game technologies, problem-based learning, and exploratory learning in developing critical thinking.

Key words: Preschool education, critical thinking, practical methods, game technology, problem-based learning, children's thinking, cognitive development.

ФОРМИРОВАНИЕ ПОТЕНЦИАЛА КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ С ПОМОЩЬЮ ПРАКТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ

Аннотация

В статье рассматривается актуальность развития критического мышления у дошкольников, роль и эффективность практических методов в этом процессе. Критическое мышление развивает у детей такие познавательные способности, как самостоятельное принятие решений, анализ, поиск альтернативных решений, постановка вопросов и формулирование выводов. В статье научно и теоретически обосновывается эффективность практических подходов, таких как игровые технологии, проблемное и исследовательское обучение, в развитии критического мышления.

Ключевые слова: Дошкольное образование, критическое мышление, практические методы, игровые технологии, проблемное обучение, мышление детей, когнитивное развитие.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, tahlil qila oladigan va muammolarga kreativ yondasha oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolalarda fikrlash faoliyatining rivojlanishi keyingi bosqichdagi ta'lim sifati va shaxsiy o'sish uchun muhim zamin yaratadi. Shu bois, tanqidiy fikrlash salohiyatini aynan maktabgacha yoshdayoq rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Tanqidiy fikrlash - bu har qanday axborotni tahlil qilish, asosli baholash, muqobil fikrlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir[1]. Bolalarda ushbu salohiyatni shakllantirish uchun ta'lim jarayoniga amaliy metodlarni joriy qilish zarur. Mazkur maqolada shu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tanqidiy fikrlash tushunchasi Jon Dyui [5], Eduard Glaser, Benjamin Blum [6], Robert Ennis kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Glaserga ko'ra, tanqidiy fikrlash — bu axborotni mantiqiy tahlil qilish va shaxsiy qarorlar chiqarishda asoslangan yondashuvdir. Maktabgacha

yoshdagi bolalarda ushbu faoliyat endigina shakllanayotgan bo'lsa-da, bu bosqichdan to'g'ri foydalanilsa, keyingi bosqichlarda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Piaget.J. [8] nazariyasiga ko'ra bolalarning fikrlashi to'rt bosqichda rivojlanadi: sensorimotor, preoperatsion, konkret operatsion va formal operatsion bosqichlar. Har bir bosqichda dunyoni tushunish va tafakkur usullari o'zgargan bo'ladi. Bolalar dunyoni o'rganish jarayonida o'z ichki sxemalarini assimillatsiya va akkomodatsiya orqali yangilaydilar.

Lev Vgotsy nazariyasi fikr-tashabbus yoshi bilan shakllanadi va ijtimoiy muloqot orqali boyitiladi. "ZPD" (zona yaqin rivojlanish) kontseptsiyasi: bolalar mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni yetakchi ko'magida bajara olishadi. Dunyoqarash esa bolalar tili va madaniy vositalar orqali fikrini ichki gapga (inner speech) aylantirib, fikr-dunyoqarashni shakllantiradi deb tariflaydi [9].

Amaliy metodlar — bu bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri hayotiy tajriba orqali egallash, faoliyat asosida o'rganish,

muammolar yechimini topish, eksperiment, o'yin va mashqlar orqali anglashni o'z ichiga oladi.

Quyidagi metodlar maktabgacha ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun samarali hisoblanadi:

Muammo asosida o'qitish (Problem-based learning - PBL): Bolaga muammoli vaziyat beriladi va u mustaqil yoki guruhda uning yechimini topadi.

Kashfiyotli o'rganish: O'quvchi mustaqil tadqiqot olib borib, yangi bilimni o'zi topadi.

Rolli o'yinlari va dramatisatsiya: Bolaning hissiy-intellektual rivojlanishini ta'minlab, tanqidiy fikr yuritishga undaydi[3].

"Nima bo'lishi mumkin?" mashqlari: Bolalar obyektlar bilan tajriba o'tkazib, taxmin va kuzatish orqali xulosa chiqaradilar.

Quyida bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda samarali dep topilgan bir qancha amaliy usulla taqdim etilgan.

"Qanday qilib muz eriydi?" mavzusida eksperiment o'tkazildi. Bolalar har xil sharoitda (quyoshda, soyada, iliq suvda) muz kuydirilishini kuzatib, qaysi omil muz erishini tezlashtirishi haqida xulosa chiqardilar.

"Yaxshi do'st qanday bo'lishi kerak?" mavzusida guruhli muhokama tashkil etildi. Har bir bola do'stga xos fazilatlar haqida fikr yuritib, savollar berdi, turli fikrlarni tahlil qildi.

"Agar men qush bo'lsam..." mavzusida ijodiy topshiriq orqali bolalar o'z tafakkurlarini kengaytirib, tanqidiy savollar bilan fikrlarini asoslaydilar.

Metod	Asosiy vazifa	Tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi roli
Ertak-muhokama	Hikoya tahlili, savol-javob, bahslarda ishtirok	Qaror sababi bilan tanqidiy baholash, argumentatsiya
Didaktik o'yinlar	Rol o'ynash, problematik vaziyat simulatsiya	Muammoni belgilash, variantlarni tahlil qilish
Muammoli ta'lim (PBL)	Real hayotiy vaziyatlarni kelib chiqish	Qaror qabul qilish, tahlil, yechimlarni solishtirish
Interaktiv va falsafiy metodlar	Savollar, kuzatish, rasm, diskussiya	Savollar orqali chuqur mulohaza, turli fikrlarni qabul qilish

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv, analiz va sintez, tizimlilik, mantiqiylik, uzluksizlik kabi usul va tamoyillardan foydalanilgan. Shuningdek mavzuni yoritishda xorijiy adabiyotlar va mahalliy manbalarning tahliliy materiallariga murojaat qilingan.

Natijalar va muhokama. Izlanishlar natijasida quyidagi amaliy metodlar bolalar tanqidiy fikrlashini o'stiruvchi, kreativ fikrlashga undovchi asosiy usullar deb topildi.

1. Ertaklar orqali tahlil va muhokama (story-based discussion). Bolalar ertaklarni tinglab, undagi harakatlar, qahramonlarning qarorlarini tanqidiy tahlil qiladilar. Masalan: "Qahramon nima uchun o'shanday harakat qildi?", "Agar siz bo'lganingizda nima qilgan bo'ladingiz?" tarzda savollar bilan fikrni chuqurlashtirish mumkin. Interaktiv usullar, masalan, onlayn forumlar yoki veb-platformalarda hikoya muhokamalari orqali ham amalga oshiriladi.

2. Didaktik o'yinlar va konstruktiv o'quv metodlari. Didaktik o'yinlar orqali bolalar muammoni tahlil qilish, yechim izlash, fikrini asoslash va baham ko'rish kabi tanqidiy jarayonlarni shaxsiy tajribada o'rganadi. Konstruktivizm asosida — bolalar o'zlari izlanadi, tajriba qiladi, natijalarni birgalikda tahlil qiladi. Bu jarayon tahlil, sintez, induksiya va refleksiya orqali tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi.

3. Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning, PBL). Bolalarga kundalik hayotdagi kichik masalalar yoki voqealar berilib, turli yechimlarni topish, har bir yechimni tahlil qilish va eng optimalini tanlashga o'rgatiladi. Jamoaviy muhokamalar

Alison Gopnik "Theory and Theory" nazariyasiga ko'r bolalar olimlar kabi o'z atrofini tahlil qilib, sabab-natija modellari hosil qiladi. Ularning fikrlash jarayoni ongli ilmiy yondashuvga o'xshaydi. Bolalar curiosity (qiziquvchanlik) orqali tushunchalarni mustaqil shakllantiradi va dunyoni o'z nazariyalari asosida tushunishga harakat qiladi [10] deb tariflaydi.

Elizabeth Bonawitz nazariyasining asosi— sabab-natija tushunchalari va asosli o'rganishcg'oyalari ustiga qurilgan. Bolalarning fikrlash salohiyati ularning sabab-natija bog'liqligini idrok etishida, unda qiziquvchanlik va eksperimentlash orqali shakllanadi deyiladi. Dunyoqarashni o'sishi, o'rganish jarayoni bolalarning dunyoga qanday munosabatda bo'lishiga, ularni kuzatishga va tushuntirishlarga asoslanadi [7].

Tanqidiy fikrlashni maktabgacha yoshda shakllantirish nafaqat bolalarning kognitiv salohiyatini, balki ularning jamiyatda faol, mas'uliyatli shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda amaliy metodlarning o'rni beqiyos bo'lib, ularning to'g'ri tanlanishi va qo'llanilishi pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqdir.

Tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlashni amaliy metodlar orqali shakllantirish — bu muntazam mashg'ulotlar, bolalarning faol ishtiroki va tarbiyachining qo'llab-quvvatlovchi yondashuvi bilan bog'liq murakkab jarayondir[2]. Ertak, o'yin, muammoli o'qitish va interaktiv metodlardan foydalanish bolalar fikrini tahliliy, mulohazali va ijodiy shakllantirishdagi asosiy vositalardir.

orqali fikrlar almashiladi. Ushbu metod tarbiyalanuvchilarda mustaqillik, mantiqiy yondashuv va ijodiy fikrlash jarayonlarini rivojlantiradi.

4. Falsafiy fikrlashni rivojlantirish. 4–5 yoshli bolalarga mo'ljallangan interaktiv metodlar: kuzatish, rasm orqali savollar berish, ijtimoiy va axloqiy muammolarni muhokama qilish orqali o'z fikrini asoslashga rag'batlantiriladi. Bolalarga "Nega...?", "Qanday qilib...?" kabi savollar berish orqali mantiqiy tahlil va ichki mulohaza yo'lga qo'yiladi.

Bolalar aqlan va jismonan yetuk rivojlanishi uchun pedagogdan nafaqat malakali dars boshqaruvchi ro'li talab qilinadi tarbiyalovchi bolalarga ham do'st ham mehribon ustoz ro'llarida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'quv-mashg'ulotlar jarayonida psixologik-pedagogik ta'minotga ham urg'u berish kerak.

Emotsional qo'llab-quvvatlovchi muhit: Bolalarning har bir savoliga ijobiy munosabat, muvaffaqiyatni e'tirof etish, stressni kamaytirish — fikrni ochiq ifodalashga turtki bo'ladi[4].

Qo'llab-quvvatlash va roli: Tarbiyachi faqat bilim beruvchi emas, balki bolalar fikrini tinglovchi, ularni savollar bilan rag'batlantiruvchi va muammoli vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi rahbar bo'lishi muhim.

Bolalarning fikrlash qobiliyati va dunyoqarashi shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli va multilateral jarayondir. Bu jarayonda ichki kognitiv rivojlanish Piaget.J, ijtimoiy va madaniy mediatsiya Vygotsky.L, nazariy bilim shakllanishi Gopnik.A, boshqalarning nuqtai nazarini tushunish Selman.R va falsafiy mulohaza Lipman kabi tamoyillar birlashadi. Ta'lim usullari va tarbiyaviy faoliyatda ushbu

nazariyalarni uyg'un ravishda qo'llash — bolalarning fikrini tahliliy, multikontekstli va tanqidiy shakllantirishda muhim kalit hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlash salohiyatini shakllantirish — bu nafaqat bilimlarni yetkazish, balki bolalarda mustaqil, analitik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadigan murakkab va tizimli pedagogik jarayondir. Eng samarali yondashuv — amaliy metodlar orqali tanqidiy fikrlashni faollashtirish bo'lib, bu orqali bolalar o'z fikrini asoslash, variantlarni tahlil qilish va o'z qarorlarini tanqidiy mulohaza bilan qabul qilishni o'rganadi.

Ertaklar yordamida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari interaktivlikni ta'minlab, bolalarning muammoni anglab, savollar orqali chuqurlikda fikrlashiga yordam beradi. Masalan, hikoya asosida suhbataro'lik metodlar va muhokama texnologiyalari bolalarda tanqidiy fikr ko'nikmalarini kuchaytiradi, Didaktik o'yinlar, interaktiv ta'lim vositalari va rasmiy materiallar esa analitik fikrlashni rag'batlantiradi va bolalarga muammoni mustaqil tarzda tahlil etish imkonini yaratadi.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasi shuningdek, bolalarga bilim va tajriba asosida o'z fikrini bildirish, turli g'oyalardan xabardor bo'lish va o'z qarorini asoslash imkonini beradi. Bu jarayonda muallim-tarbiyachi tarbiyalovchi rolida bolaning

qiziqishini rag'batlantiruvchi va o'z fikrini ifoda qilishga yordam beruvchi rahbar sifatida harakat qilishi zarur.

Muammoni hal etishga yo'naltirilgan PBL (problem-based learning) metodlari, savollar berish va muhokama asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolaning tahliliy fikrini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvda tarbiyachi bola tomondan ilgari surilgan savollarni ko'rib chiqadi, turli yechim variantlarini muhokama qiladi va eng optimal qarorni aniqlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni shakllantirish qat'iy usullar va ko'nikmalar orqali o'rganiladigan ko'nikmaga aylanadi, u qat'iyat, intizom va muntazam mashq bilan rivojlanadi. Bu jarayonda fanlararo yondashuv, madaniy xilma-xillikni inobatga olish va ob'yektiv baholash ko'nikmalari alohida rol o'ynaydi.

Xulosa. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlash salohiyatini shakllantirish nafaqat bolaning intellektual darajasini oshiradi, balki ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bunday yondashuv, bolalarni o'z fikrini erkin ifodalashga, yangicha qarashlarni o'rganishga, muammoni tanqidiy ko'rib chiqishga va ahamiyatli xulosalarni mustaqil tarzda ishlab chiqishga tayyorlaydi. Shu maqsadda interaktiv metodlar, savollar orqali ringlashuv, muammoni hal etishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar va muhokama texnologiyalari birgalikda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020.
2. G'ulomov, S. (2022). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Ahmedova, N. (2023). "Kichik yoshdagi bolalarda fikrlashni rivojlantirishda o'yin metodlarining ahamiyati." Ilmiy-amaliy jurnal "Ta'lim va taraqqiyot", №2.
4. Samarqand davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim fakulteti. (2021). "Tanqidiy fikrlash asoslari" fanidan o'quv-metodik qo'llanma.
5. Dewey, J. (1933). *How We Think*. Boston: D.C. Heath.
6. Ennis, R.H. (1987). *A Taxonomy of Critical Thinking Dispositions and Abilities*.
7. Bonawitz E. J. maqolalari, Harvard Graduate School of Education.
8. Piaget, J. *The Language and Thought of the Child; The Child's Conception of the World; The Origin of Intelligence in the Child*.
9. Vygotsky, L. S. *Mind in Society; Thought and Language (Thinking and Speech)*.
10. Gopnik, A., Meltzoff, A., & Kuhl, P. *The Scientist in the Crib; Gopnik & others Words, Thoughts, and Theories*.